

## SHAVKAT RAHMONNING “BAXT SO‘ZI” SHE’RIDA LIRIK KECHINMA VA TUYG‘UNING TERANLASHUVI.

*Aminova Rayxon Alisher qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 4-bosqich 401-guruh talabasi  
e-mail: aminovarayhon4@gmail.com*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she‘ri misolida lirik kechinma va tuyg‘uning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. She‘rning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, unda lirik qahramon ruhiyatidagi kechinmalar, baxt tushunchasining falsafiy-estetik talqini hamda his-tuyg‘ularning poetik teranlashuv jarayoni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, she‘r tarkibida qo‘llangan tasviriy vositalarning lirik kechinmani chuqurlashtirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida shoir poetikasida baxt tushunchasining individual ruhiy olam, hayot falsafasi va insoniy kechinmalar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** baxt tushunchasi, poetik talqin, badiiy obraz, Shavkat Rahmon, o‘zbek she‘riyati, badiiy obraz.

Shavkat Rahmon o‘zbek zamonaviy lirik she‘riyatining eng nozik tuyg‘ularni badiiy shakllantira olgan shoirlaridan biridir. Uning she‘rlarida inson ruhiyati, jamiyatga mas‘uliyat, baxt va izzat orasidagi murakkab ichki kurash yuksak lirik ohangda ifodalanadi. “Baxt so‘zi” she‘ri ham ana shu ruhiy kechinmalarning teran qatlamini ochadi. Asarda shoir “baxt” tushunchasiga oddiy his emas, balki mas‘uliyat, ehtiyot va jamiyat oldidagi burch sifatida yondashadi.

She‘r boshida shoir “baxtiyorman” degan so‘zni aytishning o‘zi ham katta kuch va chidam talab qilishini ta‘kidlaydi. Bu yerda lirik kechinma ichki ikkilanma, o‘zini tuta bilish, ruhiy ehtiyotkorlik kabi holatlar orqali teranlashadi. Shoir “baxt”ning til uchida turgan oson so‘z emasligini, uni aytish ortida mas‘uliyat borligini his ettiradi.

Og‘ir botmasmikin bu so‘z kimgadir,

Tegib ketmasmikin oh-vohlariga [1; 5 b]

misralari lirik qahramonning boshqalarga nisbatan hamdardlik va ruhiy sezgirlik bilan yashashini ko‘rsatadi. Bu yerda shoirning o‘ziga xos hushyor qalbi, boshqalar dardiga nisbatan mas‘uliyatli munosabati teran lirik tuyg‘uga aylanadi.

She‘rning asosiy g‘oyalaridan biri – shoirning el oldidagi vazifasi. Shavkat Rahmon she‘rda shoir timsolini shunchaki ijodkor emas, balki jamiyat dardini his qiladigan, omma ruhiyati uchun javobgar inson sifatida talqin qiladi:

Avvalo bu soʻzni oʻzgaralar aytsin  
 Aytsinlar koʻzlari quvonchga toʻlib  
 Elning baxti uchun umrini tikkan  
 Shoirlar aytmasin birinchi boʻlib.[1;5 b]

Bu oʻrinda lirik tuygʻu masʼuliyat bilan kengayadi: shoir oʻz baxtidan oldin el baxtini oʻylaydi. Shu orqali shoir shaxsiyatidagi kamtarlik, fidoiylik, axloqiy poklik koʻrinadi. Poetik nuqtai nazardan, bu misralar sheʼrning ruhiy burilish nuqtasi boʻlib xizmat qiladi: shoir oʻz baxtini ham boshqalar manfaatiga yoʻnaltiradi, yaʼni shoirlar elning bati uchun umrini tikishini eslatib oʻtadi. Bu esa lirik kechinmaga chuqur axloqiy rang beradi.

Shavkat Rahmon ijodida “men” obrazi koʻpincha jamoaga bogʻlangan, el dardini zimmasiga olgan lirik qahramon sifatida koʻrinadi. “Baxt soʻzi” sheʼrida ham shoirning hayotga qarashi, oʻzini jamiyat oldida masʼul deb bilishi ravshan seziladi.

“Bu soʻzni bir umr aytmay yashadim..” degan satr esa shoirning hayotiy holatidan dalolat: u baxtni daʼvo qilishni emas, koʻproq xalq iztiroblarni aytishni oʻziga burch deb biladi. Shavkat Rahmonning boshqa sheʼrlarida ham shoir oʻzini xalqning ruhiy ogʻrigʻini his qiladigan inson sifatida tasvirlaydi.

“Biz anglaymiz: “baxtiyorman” degan soʻzni aytish uchun hali shoirning koʻngli toʻlgan emas. Boshqa bir sheʼrida Shavkat Rahmon “urilib-surinib, sira toʻlmagan bir koʻngil qoladi qolsa ham mendan” deb bitadi 1983-yilda.” [2;92-b]

Sheʼrda oddiy sintaktik qurilish, suhbat ohangi va samimiy murojaat ohangi ustun. Boshdan oxirigacha sheʼr ichki monolog tarzida kechadi va oʻquvchiga bevosita murojaat qilayotgandek tuygʻu uygʻotadi.

Sheʼrning yakunida:

Gʻam soʻzin elimdan avvalroq aytdim,  
 Baxt soʻzin aytaman eldan keyinroq [1;5-b]

degan misralar lirik kechinmaning eng yuqori nuqtasi boʻlib, shoirning ruhiy olami toʻla ochiladi. Bu satrlarda el taqdiri, shoirning fidoyiligi va kamtarligi badiiy umumlashtirilgan.

“Baxt soʻzi” sheʼri Shavkat Rahmon lirikasi uchun xos boʻlgan chuqur ruhiy kechinmalarni oʻzida mujassam etadi. Sheʼrda baxtni aytishdan tortinadigan, el dardini oʻz dardidan ustun qoʻyadigan lirik qahramon gavgaldanadi. Lirik kechinma bosqichma-bosqich teranlashib, shoir shaxsiyati bilan uygʻunlashadi. Sheʼr poetik jihatdan sodda, ammo mazmunan chuqur boʻlib, Shavkat Rahmonning ijodiy falsafasini –“avval el, keyin men” degan gʻoyani yorqin ifodalaydi.

Oʻzbek sheʼriyatida “baxt” tushunchasi har bir shoirning dunyoqarashi, ruhiy tajribasi va badiiy qarashiga koʻra turlicha talqin qilinadi. Baxt bir shoirda masʼuliyat, boshqa birida ruhiy sokinlik yoki hayotning qadri bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Shuning uchun Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi” she‘rini tahlil etar ekanmiz, uni boshqa zamondosh shoirlarning baxt haqidagi qarashlari bilan qiyoslash mazmunni yanada chuqurlashtiradi. Shavkat Rahmonning “Baxt so‘zi”dagi baxt, avvalo, ijtimoiy mas‘uliyat, elning kayfiyati bilan bog‘langan tushuncha bo‘lsa, Erkin Vohidov ijodida boriga shukur qilish, yashashning o‘zi, muhabbat va tiriklik ne‘matini his etish bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Erkin Vohidov she‘riyatda baxt tushunchasi hayot falsafasi, shukronalik va insoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Shoir baxtni inson intilib yetishi kerak bo‘lgan uzoq orzu sifatida emas, balki kundalik hayotda mujassam bo‘lgan, ko‘pincha inson qadrlamay o‘tib ketadigan ilohiy ne‘mat sifatida tasvirlaydi. Bu jihat she‘rning quyidagi misralarida yaqqol namoyon bo‘ladi:

“Atrofdagi baxt, ba‘zan bilmaymiz!”[3]

Shavkat Rahmon ijodi bilan qiyoslab tahlil etarkanmiz, Erkin Vohidov ijodida “baxt” tushunchasi borliq ne‘matlarini his etish, yashashning o‘zidan zavq olish va shukronalik tuyg‘usi bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan, Erkin Vohidov talqinidagi baxt– hayotning o‘zini sevish, uning har bir ne‘matini qalban his etish va mavjudlikning qadriga yetish falsafasidir.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham ba‘zi o‘rinlarda “baxt” so‘zini uchratamiz. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida baxt ko‘pincha, inson hayotiga kutilmaganda kirib keladigan, nozik va o‘tkinchi, ammo qalbgacha chuqur iz qoldiradigan ruhiy ne‘mat sifatida tasvirlanadi. Mazkur she‘rda shoir baxtni muhabbat, imkoniyat va taqdir bergan go‘zal lahza timsolida ifodalaydi.

“Sen kelding shamolday shaylanib..” [4;146-b]

“So‘ng kelding yomg‘irga aylanib” [4;146-b]

“So‘ng qor bo‘lib kelding ” [4;146-b]

She‘rning boshlanishidayoq lirik qahramon hayotiga kirib kelgan baxt turli poetik obrazlar orqali tasvirlanadi. Bu misralarda shamol, yomg‘ir, qor obrazlari tasodifiy tanlanmagan. Ular tabiat hodisalari bo‘lish bilan birga, baxtning turli qiyofalarini ramziy ifodalaydi: shamol– kutilmagan kirib kelish, yangilanish, yomg‘ir – qalbni poklovchi mehr va hayotbaxshlik, qor– sokinlik, poklik va nozik go‘zallik ramzi.

Demak, Shavkat Rahmon ijodida baxt – haqiqat, kurash, ruhiy jasorat bilan bog‘liq bo‘lsa, Halima Xudoyberdiyeva ijodida baxt – inson hayotiga kirib keladigan nozik ne‘mat bo‘lib, uni anglash, qabul qilish, asray bilish inson ruhiy kamolotining muhim mezon sifatida gavdalanadi.

Rauf Parfi she‘riyatiga nazar tashlasak, uning ijodida baxt ko‘proq inson qalbidagi iz qoldirgan muhabbat, unutilmas xotira va ruhiy yaqinlik ma‘nolarida namoyon bo‘ladi. Shoir baxtni moddiy farovonlik yoki tashqi shodlikda emas, balki qalbning bir

insonga butunlay bog'lanishi, u bilan kechgan lahzalarning umrboqiy xotiraga aylanishida ko'radi.

“Uning bilan kechgan damlardan  
Senga qolgan shirin xotira” [5]

Ushbu misralarda baxt– kechib bo'lgan, ammo qalbda yashayotgan eng yorug' lahza sifatida talqin etiladi. Demak, Rauf Parfi poetikasida baxt– xotirada yashovchi ma'naviy boyluk. Uning ijodida, ko'pincha, baxt va iztirob yonma-yon keladi. Shavkat Rahmon she'riyatida baxt ichki uyg'oqlik, haqiqat bilan yashash bo'lsa, Rauf Parfi ijodida baxt– muhabbatning qalbda qoldirgan yorug' izi, sog'inch va unutilmas xotira bilan bog'liq kechinmadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Раҳмон Шавкат. Гуллаётган тош. Шеърлар.-Т.: Ёш гвардия, 1985.
2. Улуғбек Ҳамдамов. "Бадий тафаккур тадрижи". Т., "Янги аср авлоди". 2002.
3. <https://tafakkur.net>
4. Ҳалима Худойбердиева. Сайланма. “Садоқат” тўплами. Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа консерни бош таҳририяти, 2000.
5. Rauf Parfi. 1964-yil daftaridan.